



1991-yildan
chiqa boshlagan

2021-yil. 3-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

8-MART ARAFASIDA 28 NAFAR QIZ **ZULFIYA** NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLANDI



Ushbu sonda



Dars – muqaddas

Tilimizni kim sevmaydi?

3
bet



Tahlil

Jadid adiblari oilaviy
qadriyatlar haqida

20
bet



Tadqiqotlar

O'zbek tilida ko'p ma'noli
somatik frazemalar va
ularning uslubiy bo'yog'i

27
bet



Литературоведение

Воссоздание
среднеазиатского
колорита в повести
Андрея Платонова
«Джан»

68
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 3-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMUNQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Zulxumir MIRZAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi
32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2021.31.03.da topshirildi. Ofset usuli-da chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasini 10, 11 kegl. «Eko textile produkt» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 4900 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

DARS - MUQADDAS	
Adiba BEKCHANOVA. Tilimizni kim sevmaydi?	3
METODIK TAVSIYA	
Oydin MO'MINOVA. Monologik nutqni o'stirishda marn yaratish texnologiyasi	5
Akmal ABDULLAYEV. Badiiy so'z - nafasat eshigini ochguvchi kalit	7
Gulnoza QURBONOVA, Shahlo YULDASHOVA. Mustaqil ishni tashkil etish tamoyillari	9
QO'SHIMCHA MATERIAL	
Nilufar KARIMOVA. Soft skills: xorijiy davlatlar tajribasi	11
TAHLIL	
Shaxnoza CHORIYEVA. Urushda qatnashmagan yozuvchilar asarlarining "Yo'qotilgan avlod" adabiyotidagi o'ziga xos o'rni	13
Muyassar TILOVOVA. Badiiy tahlilda fenomenologik psixologiyani ahamiyati	15
Muxlisa SABIROVA. Gazeta matnlarining performativ xususiyati	17
Feruzaxon KARIMOVA. Dialog va uning monologik nutq bilan kesishuv nuqtalari	18
Rustam SHARIPOV. Jadid adiblari oilaviy qadriyatlar haqida	20
Gulchehra DARVISHOVA. Sharlotta Bronte romanlarida ayolning jamiyatdagi o'rni masalasi	22
ADABIY TAQVIM	
Shavkat NISHONOV. Adabiy ta'lim jonkuyari	23
Mahbuba TOJIBOYEVA. Sendan seni izlagan Ubaydulloh	25
TADQIQOTLAR	
Umida RASHIDOVA. O'zbek tilida ko'p ma'noli somatik frazemalar va ularning uslubiy bo'yog'i	27
KICHIK TADQIQOT	
Manzura SHAMSIYEVA. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqiy faoliyat holati	29
Jahongir TUROBOV. Avtoyo'lsozlik terminlarining shaklii strukturasi	31
Umida ALLAMUROTOVA. Illokutiv aktlar va ularning tarjimada berilishi	32
Umida DUSHAYEVA. Ispan tilida komparativlarning "adyektiv" tipidagi jumalari	33
Nigora ABDULLAEVA. Ways of expressing contrasting opinions or ideas	34
Obidaxon FAYZULLAYEVA. Abdulla Qahhor hikmatlari - yoshlar uchun dasturlamal	36
Dilnoza MAMIROVA. Reklama matnlarida metaforaning o'rni	37
Dilorom ERPULATOVA. Ingliz va o'zbek tillarida murojaat so'zlarining lingvovadaniy xususiyatlari	38
Dilshada RAXMATULLAYEVA. Xitoy tili fonetikasi va uni o'qitish yo'llari	39
Marg'uba ABDULLAYEVA. Tarixiy asarlarda g'ayritabiiy tug'ilish motivi	41
Feruza HILOLIDDINOVA. Shekspir tragediyalarida olam va odam konsepti talqini	43
Feruza KHAYITOVA. The origin of english place names	44
Adiba YUSUPOVA. O'zbekcha realiya birliklar ishtirokidagi barqaror birikmalar persepsiyasi	46
Lutfulla SUVONOV. "Sadoi Farg'ona" ning hur sadolari	47
METODIKA. ОПЫТ	
Мадинабону АХМЕДОВА. Особенности лирики Э.Вахидова и А.Арипова	49
Татьяна СТЕПАНКОВА. И.С.Тургенев. «Русский язык»	51
МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ	
Ситора РАХМОНОВА. Методические разработки по грамматической теме «Род имен существительных»	53
Инобат ТУРСУНОВА, Наима ХАЙТБАЕВА. Теоретические и практические проблемы формирования лексико-семантических групп при создании учебного материала в сфере избранной специальности	56
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	
Светлана ЯРЦЕВА. Когнитивный аспект языковой интерференции	58
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	
Дилдора ТОЛИПОВА. Актуальность изучения текста в преподавании русского языка	60
Нигина АЛИБЕКОВА. Функции детской литературы	61
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Ойдин СОМСКАЛИЕВА. Актуальность изучения имен собственных в лингвокультурологическом аспекте	63
ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ	
Майя ЭМ. Вариантность некоторых глагольных компонентов во фразеологических словарях краткого объема	65
НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА	
Беккенбауэр РЕЙМОВ, Саида СУЛТАНОВА. Сигнальная функция компонента қол (рука) в прототипических ситуациях, представленных в именных каракалпакских фразеологизмах	66
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Рубен НАЗАРЬЯН. Воссоздание среднеазиатского колорита в повести Андрея Платонова «Джан»	68
Агата ОСИПОВА. Историко-теоретический подход к проблеме жанра в современном литературоведении	69
Саидмурод ХОЛБЕКОВ. О новом художественно-изобразительном средстве	71
ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ	
Шахло БОТИРОВА. Методология преподавания литературы и чтения	72
Сайёра ИБРАГИМОВА. Формирование профессиональных знаний в учебе - залог успеха в работе	73
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Бахтиёр ДАНИЯРОВ. О многоаспектном комплексном исследовании семантической структуры и своеобразие употребления синонимов	75
Конисбай ЮСУПОВ. Изучение художественных произведений в академических лицах	78

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

ABDULLA QAHHOR HIKMATLARI – YOSHLAR UCHUN DASTURULAMAL



Abdulla Qahhor donishmand ijodkorlardan. Adibning hikoyanavislilik mahorati adabiyotshunoslikda keng miqyosda o'rganilgan mavzulardan bo'lishiga qaramay, uning ohorli jihatlari hali-hanuz tad-

qiqotlarning obyekti bo'lib qolmoqda. Adib asarlarida qo'llagan hikmatlar ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'lib, ko'p qo'llanadigan iqtiboslarga aylanib qolgan. Xususan, "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas" yoki "Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi" singari aforizmlari zahirida yozuvchilikning mas'uliyati aks etgan.

Adib asarlarida, jumladan, hikoyalarida ham o'ziga xos hikmat darajasidagi jumalar qo'llangan va ular kitobxonlarning sevimli iboralariga aylanib ulguragan.

Hikoyalarda qo'llangan hikmatlar ba'zan muallif, ba'zan personaj nutqi orqali ifodalangan. Xususan, "Mahalla" hikoyasida Hikmat buvaning kampiri qazosidan keyin tushkun ahvolda ekanligini ko'rib, unga dalda bo'ladigan so'zlarning asardagi epizodik obraz bo'lgan cho'tkachi tomonidan aytilishi, so'zlar zahiridagi ohorli hikmat ham bosh qahramon taqdiridagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi:

– Xafa bo'lmay yuribsizmi, otaxon... Kampir onam alomat ayol edilar... siz o'sha kuni o'zingiz bilan o'zingiz ovora bo'lib tazyiga kelgan odamlarni payqamadingiz... Ana odam-u... Mahallaga sig'may ketdi! Mahallamizning ko'chasi bir metr cho'kdi!... Kampir onam dunyoga kelib odam ekan ekanlar. Dunyoga kelgan odam avvalboshi odam ekishi kerak ekan. Men ibrat oldim... [1: 124]

Parchada keltirilgan "odam ekish" jumlasini orqali insonning o'z hayoti davomida qilgan ibratli amallari va insonlarga ulashgan ezguliklari nazarda tutiladi, ya'ni inson dunyoga kelgan chog'idanoq atrofidagilarga, umuman, insonlarga yaxshilik qilib yashashi lozimligi haqidagi hikmat ushbu jumalarga singdirilgan.

Adibning "O'g'ri" hikoyasida qo'llagan aforizmlari garchi hajv, kinoya mazmunida berilgan bo'lsa-da, asar qahramonlarining o'ziga xos jihatlari xarakterlashga xizmat qilgan. Xususan, Qobil boboning amin bilan suhbat chog'ida qo'llagan "yo'qolmasdan ilgari bormidi?" yoki "fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi" yoki xalq tilidan olingan "kishini begim degancha beli sinar ekan" kabi jumalarni keltirish mumkin.

"Nurli cho'qqilar" hikoyasida asarning yetakchi qahramoni Zuhraoning bema'ni hayotiy mantiqi tarzida aytilgan "chuchvaradan maqsad, go'sht bilan xamir yeyish bo'lsa, ikkovi ham turibdi, qo'shib yeyaveraman!" [1: 124] shaklidagi jumalardan ushbu qahramonning hayot haqiqatini noto'g'ri anglashini ko'rish mumkin. Ya'ni yozuvchi personaj nutqidagi noto'g'ri mantiqiy xulosa orqali asar qahramoni xususida kitobxonga ma'lumot bermoqda.

Adibning "O'jar" hikoyasidagi "Har yomonning bir am-mo'si bo'lishi kerak, har yaxshining bir lekin'i" hikmati xalq maqolining o'ziga xos ma'no kasb etgan shakli bo'lsa, "Yillar" hikoyasidagi Murodjonning "Birovning ishiga sara-tonda qo'l sovqotadi" hikmati qahhorona aforizmlardan biri bo'lib, unga ko'ra har kim o'z mehnati tufayli farog'at ko'rishiga ishara qilinmoqda.

Ayrim hikoyalaridagi hikmatlar muallifning asar qahramoniga bergan ta'rif zahirida ham ko'zga tashlanadi. Xususan, "Ming bir jon" hikoyasidagi Akramjon obrazini xarakterlovchi "... afitidan, Masturaning bir minutlik oromi uchun o'ng ko'zini o'yib berishga ham tayyor edi" jumlasida uning xotini uchun boridan voz kechishga ham tayyor inson ekanligi gavdalantirilmoqda.

Shu hikoyadagi irodali insonlar xususida Mirrahimov tilidan aytilgan so'zlar ham ayni hikmat:

– Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi, – hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni bashar-ti so'ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so'nadi. Mana shu ishonch Masturaga o'limni yo'latmaydi. [1: 114]

Adibning deyarli har bir asarida bu shakldagi hikmatlar-ni uchratish mumkin. Ularning har biri ohorliliigi, hayotiy-li-gi bilan kishilarni jalb qiladi, o'ziga yetarli xulosa chiqarib olishiga ko'maklashadi. Balki shu sababli ham A.Qahhor qalamiga mansub qator yetuk hikoyalar XX asr o'zbek hikoyachiligining rivojida va, hatto, jahon hikoyachiligi taraqqiyotida ham munosib o'rin tutib kelmoqda. Taniqli rus adabiyotshunosi V.Smironova "Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon novellistik adabi-yotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatarga qo'yish mumkin" [2: 7]. – deydi.

A.Qahhor hikoyalariga asos qilib olingan hayot haqiqati yoki hayotiylik tamoyili unda qo'llanilgan aforizmlar tufayli yanada takomillashgan, insonlar xotirasidan mustahkam o'rin olgan. Adibning badiiy adabiyot va yozuvchi mahorati xususida va, umuman, hayot haqida aytgan hikmatlari – aforizmlari bugungi avlod yoshlari uchun, ijodkor ahl uchun dasturulamali bo'lishiga shubha qilmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. Tanlangan asari. – Toshkent: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
2. V.Smironova. Farg'onalik Abdulla Qahhor // "Дружба народов", 1963, 7-son.